

RAQAMLASHGAN JAMIYATDA YOSHLAR DUNYOQARASHI XUSUSIYATLARI

Eshdavatov Otaniyoz G‘afforovich,
Navoiy davlat universiteti katta o‘qituvchisi
El.pochta. otaniyoz324@gmail.com

***Annotatsiya.** Maqolada globallashuv sharoitida raqamlashgan jamiyatda yoshlarning dunyoqarashi, ularga ta’sir etuvchi omillar hamda yoshlar dunyoqarashining namoyon bo‘lish xususiyatlari bayon etilgan.*

***Tayanch so‘zlar:** globallashuv, raqamlashgan jamiyat, dunyoqarash, raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, internet, yoshlar dunyoqarashi.*

***Аннотация.** В статье рассматривается мировоззрение молодежи в цифровом обществе в условиях глобализации, факторы, влияющие на него, а также особенности его проявления.*

***Ключевые слова:** глобализация, цифровое общество, мировоззрение, цифровые технологии, цифровая трансформация, интернет, мировоззрение молодежи*

***Annotation.** The article outlines young people’s worldview in a digitised society under conditions of globalisation, the factors influencing it, and the characteristics by which it manifests.*

***Key words:** globalisation, digital society, worldview, digital technologies, digital transformation, internet, youth worldview*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida insoniyat, xususan jamiyatning muhim demografik qatlami hamda harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan yoshlar tafakkuri, dunyoqarashi, uning transformatsiyasi, namoyon bo‘lish xususiyatlari va dinamikasi jarayonlari davlatlar va jamiyatlar ijtimoiy-iqtisodiy mo‘ljallarida, taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyoqarash kategoriya sifatida ko‘plab fanlar kesimida o‘rganilgan, tahlil qilingan hamda davr va vaqt, voqelik nuqtai-nazaridan doimiy o‘rganilib, tadqiq qilib kelinayotgan fanlararo sermazmun tushuncha hisoblanadi.

Dunyoqarash masalasi falsafa uchun ham, boshqa fanlar uchun ham hamma davrlarda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Faylasuflar doimo ushbu masalaga katta qiziqish bilan qaraganlar va dunyoqarashga doir bo‘lgan turli qarashlarni ilgari surganlar. Bu qarashlarda muayyan davr ruhi, madaniyati, fan va amaliyotining umumiy holati, xususiyatlari aks etib turgan.[1]

Dunyoqarash kategoriya sifatida o‘z mazmun-mohiyati va xususiyatlari, arxitekturasiga ko‘ra, murakkab tizim hisoblanadi. Hayotdagi turli omillar hamda olimlar, faylasuflar, tadqiqotchilarning dunyoqarashni tushunishga bo‘lgan yondoshuvi, o‘ziga xos munosabati, nuqtai nazari uning mohiyati, strukturaviy elementlari, tarixiy turlari to‘g‘risidagi qarashlaridagi farqlarni nazarda tutishi mumkin.

Dunyoqarash tushunchasi, mazmun-mohiyati, ko‘lami, namoyon bo‘lish shakllari masalalari uzoq tarixiy taraqqiyot yillarida ko‘plab mutafakkirlar, olimlar, ilm-fan namoyondalari tomonidan tadqiq qilingan, o‘rganilgan.

Dunyoqarash deganda insonning olam haqidagi qarashlari, bilimlari, ideallari, e‘tiqodi, his-tuyg‘ulari, kayfiyati, qadriyatlarini o‘z ichiga oluvchi murakkab tizim nazarda tutiladi. U shaxsning xulq-atvori va hatti-harakatlarida, shuningdek uning jamiyatga va o‘zga kishilarga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Inson dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlari ilk bor F.Shleyermaxerning “Din haqidagi nutqlar” va G.V.F.Gegelning “Ruh fenomenologiyasi” nomli asarlarida yaxlit sistema sifatida tadqiq qilingan.[2] Keyinchalik “dunyoqarash” faylasuflar tomonidan eng ko‘p ta‘riflangan tushunchalardan biriga aylandi.

Muhokama va natijalar. Hozirgi kunda falsafiy adabiyotlarda dunyoqarashni uchta. mifologik, diniy, falsafiy turlarga ajratish keng qo‘llaniladi. Va falsafaga dunyoqarashning uchinchi tarixiy turi, oliy ko‘rinishi, hozirgi davrdagi hukmron shakli sifatida qaraladi. [3]

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida dunyoqarash tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan. Dunyoqarash - dunyoga va insonning undagi o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e‘tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog‘liq. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o‘z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilann chambarchas bog‘langan. Dunyoqarash insonning o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu jihatdan dunyoqarash voqelikning inson ongidagi sub‘ektiv in‘ikosidir. Ayrim individning ongi bilan bog‘langan individual dunyoqarash, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan bog‘langan ijtimoiy dunyoqarash mavjud. Bular bir-birini to‘ldiradi, bir-biriga ta‘sir qiladi, bir-birini rivojlantiradi.[4]

Ma‘lumki, jahon miqyosida axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo‘shishi bilan birga, murakkab va ziddiyatli xarakterga ega bo‘lgan jarayonlarni ham keltirib chiqarmoqda. XXI asrda axborot resurslarining kengayishi, jamiyat hayotining aksariyat sohalariga raqamli texnologiyalarning faol tarzda kirib kelishi va tadbiq qilinishi raqamli transformatsiya jarayoni va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlarni boshlab berdi, ijtimoiy, madaniy, ma‘naviy sohadagi ma‘lumotlar orqali turli yosh va toifadagi shaxslarning

ongiga ta'sir qilib, ularning dunyoqarashi, ijtimoiy xarakteri hamda murakkab tafakkurini shakllantirish vositasi sifatida real voqelikka aylanmoqda.

Raqamlashgan jamiyat axborotlashgan jamiyatning keyingi, yanada rivojlangan bosqichi bo'lib, unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (internet, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, elektron xizmatlar) barcha sohalarga chuqur va keng joriy etilgan jamiyat hisoblanadi.

E. Toffler[5] "axborot jamiyatini" qishloq xo'jaligi va sanoat bosqichlaridan keyingi sivilizatsion rivojlanishning yakuniy bosqichi deb hisoblagan. Olimga ko'ra, raqamli jamiyatning paydo bo'lishi ushbu o'zgarishlar fonida texnologik innovatsiyalar va ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlarning aniq natijasidir.

Raqamli jamiyat, uning ijtimoiy mohiyati, jamiyatda va shaxs hayotida namoyon bo'lish xususiyatlari, ong, tafakkur va dunyoqarash evolyutsiyasi, qadriyatlar tizimida aks etishi va shu kabi ilmiy tahlillar yevropada M.Heidegger, N.Bostrom, B.Stigler, Y.Hararilar, Rossiyada A.V.Smirnov, S.V.Kositsina, I.A.Voronina, A.V.Kirpichnikova, A.P.Mixaylov, V.S.Chagin, V.Stepinlar tomonidan, O'zbekistonda esa M.Yusupov, A.Ergashev, S.To'laganova, Z.Xolbekov kabi tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilinmoqda.

XXI asr nafaqat "axborot asri", shu bilan birga "raqamli uyg'onish davri" sifatida namoyon bo'lib, bunda axborot va raqamli texnologiyalar ta'sirida barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalar tubdan o'zgarib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kommunikatsiya texnologiyalari tizimlari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data), virtual reallik kabilar natijasida insoniyatning dunyoni idrok etish shakli, dunyoqarashi, bilish jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi.

Endilikda inson borliqni nafaqat tabiiy yoki ijtimoiy jihatdan, balki raqamli ontologiya ya'ni virtual mavjudlik asosida ham anglay boshladi. Shu bois falsafaning azaliy markaziy masalasi bo'lgan "inson va borliq" munosabati zamonaviy sharoitda "inson va raqamli borliq" masalasiga aylangan. Bu yangi borliq turi o'zining ontologik (mavjudlik mohiyati), aksiologik (qadriyatlar tizimi) va gnoseologik (bilish jarayoni) jihatlari bilan inson tafakkuri va ijtimoiy ongini qayta shakllantirmoqda.[6]

Raqamli transformatsiya bu shunchaki texnologik modernizatsiya yoki avtomatlashtirish emas, balki inson tafakkuri, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar tizimida yuz berayotgan falsafiy inqilobdir. U ongning yangi ko'rinishini raqamli ongni shakllantiradi.[7] Shu ma'noda ta'kidlash joizki, raqamli ong bu inson tafakkuri va dunyoqarashining yangicha bosqichi hisoblanib, unda axborot va uning oqimi, algoritmlashgan tafakkur, sun'iy intellekt bilan muloqot, virtual muloqot va tajriba va identifikatsiya jarayoni asosiy kognitiv mexanizmlarga aylanadi hamda jamiyat raqamlashib boradi. Raqamlashgan jamiyatda shaxs, ayniqsa yoshlar dunyoqarashining

namoyon bo‘lish xususiyatlari bugungi falsafa fanining dolzarb tadqiq yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Xulosa. Yoshlarning barcha sohalar bo‘yicha bilimi, tafakkuri, dunyoqarashi shakllanib, yuksalishida raqamlashgan jamiyatning texnik va texnologik imkoniyatlari benihoya katta hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya bu shunchaki texnologik modernizatsiya yoki avtomatlashtirish emas, balki inson tafakkuri, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar tizimida yuz berayotgan falsafiy inqilobdir. U ongning yangi ko‘rinishini raqamli ongni shakllantiradi.[7]

Axborotlashgan, raqamlashgan jamiyat sharoitida insonlar axborot va ma’lumotlarning katta qismini bevosita global tarmoqlardan olishini inobatga olsak, yoshlar tafakkuri, dunyoqarashi xususiyatlari ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘lishini ta’kidlash joiz, ya’ni mavjud axborot olami imkoniyatlaridan kelib chiquvchi ijobiy hamda axborot olamining ““chuqur tahlil qilinmagan yashirin” “yopiq” imkoniyatlari”dan kelib chiquvchi salbiy oqibatlari orqali ko‘rish, kuzatish mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, raqamlashtirilgan jamiyat sharoitida yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlari tizimi tezkor, texnologik, ko‘p qatlamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda va ayni vaqtda mazkur jarayon bir tomondan yoshlarda innovatsion dunyoqarash, erkinlik va ochiqlikni kuchaytirsam, ikkinchi tomondan madaniy-ma’naviy barqarorlik va o‘zini anglash masalalarini dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Hotamov. Dunyoqarash, bilish, faollik. –T.. «Fan va texnologiya», 2014, - B.6
2. Гегель Г.В.Ф. Феноменология духа // Сочинения. Том 4. – М.. Мысль, 1959. -С.322-330.
3. A. Hotamov. Dunyoqarash, bilish, faollik. -T.. «Fan va texnologiya», 2014. -B.7
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. T.. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 382-bet
5. Тоффлер Э. Третья волна / Пер. с англ., под ред. С. А. Гудимовой. М.. АСТ, 2010. 784 с.
6. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. — Boston. Beacon Press, 1984.
7. Heidegger, M. Die Frage nach der Technik. — Stuttgart. Neske, 1954.